



## ISSUES OF LITERARY INFLUENCE IN THE FORMATION OF THE "SHORT NOVEL" GENRE IN ARABIC LITERATURE

*Nasiba Umarova*

*Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

**Abstract.** This article describes the unique aspects of the short novel genre in Western and Arabic literature. In addition, the origin and stages of development of the novel genre in Arabic literature are given. The influence of Western literature on Eastern literature is revealed, in particular, the principles of the formation of Arabic literary processes.

**Keywords:** Western literature, Arabic literature, prose, novel, literary connections, translation work, short novel, novella.

## ARAB ADABIYOTIDA “QISQA ROMAN” JANRINING SHAKLLANISHIDA ADABIY TA`SIR MASALALARI

*Umarova Nasiba Abduvali qizi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti  
Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada g‘arb va arab adabiyotida “qisqa roman” janrining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari arab adabiyotida roman janrining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari berib o‘tilgan. G‘arb adabiyotining sharq adabiyotiga ta`siri, xususan arab adabiy jarayonlari shakllanish tamoyillari ochib berilgan.

**Kalit so‘zar:** G‘arb adabiyoti, arab adabiyoti, nasr, roman, adabiy aloqalar, tarjimonlik faoliyati, qisqa roman, novella

**Аннотация.** В данной статье описаны уникальные аспекты жанра «короткого романа» в западной и арабской литературе. Кроме того, даны зарождение и этапы развития жанра романа в арабской литературе. Раскрывается влияние западной литературы на восточную литературу, в частности, принципы формирования арабских литературных процессов.

**Ключевые слова:** западная литература, арабская литература, проза, роман, литературные связи, переводческая работа, повесть, новелла.

“Hayotni, odamlar ruhiyatini, poetik tafakkur tabiati

va, ayniqsa, san`at qonuniyatlarini bilmay turib, insoniyat uchun zarur, foydali umurboqiy asarlar yozib bo`lmaydi. “ [1,b.5]

**Kirish.** Badiiy adabiyot, badiiy soʻz bu turfa millat va xalqlarni bir biri bilan bogʻlab turuvchi mustahkam koʻprikdir. Gʻarb va arab adabiyotidagi adabiy aloqalar va aks taʼsir jarayonlari ham uzoq tarixga ega. Badiiy adabiyot, soʻz sanʼati, badiiy ijod doimiy izlanish va yangilanishlarni talab qiladi. U doimo davr ruhiyatidan kelib chiqib yangi bir bosqichga chiqib, takomillashib boradi. “Ijod-insonning cheksiz koinot ichra oʻz ismini, oʻrnini, qadr-qimmatini anglashga intilishi, isyoni. Isyon esa betinim va uzluksiz yangilanib turishni talab qiladi va shunga ehtiyoj sezadi. Ijodda yangilovchi ham yangilanuvchi ham uning oʻzi-bir ijod tugagan joydan boshqasi boshlanadi-turgʻun holat ijod uchun yot.” [2,b.20] Adabiyot badiiy soʻz sanʼati demakdir, badiiy soʻzdan mohirona foydalangan ijodkorgina ijod zavqini toʻlaqonli his eta oladi. Haqiqiy badiiy soʻz ustasi tengsiz goʻzal ijod namunalarini, oʻlmas asarlarni yarata oladi. Badiiy asarga yuklatilgan gʻoyani qay tarzda tarannum etishni esa ijodkorning oʻzi tanlaydi. Mana shunday adabiy turlarning biri bu nasrdir. Nasrning yirik janrlaridan biri bu romandir.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda jahon adabiyotida keng tarqalib, ommalashib borayotgan “qisqa roman” janri roman janrining asosida shakllanib hozirgi koʻrinishga yetib eldi. Roman janr sifatida oʻziga xos taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan. “V.G.Belinskiyning aytishicha, roman janr sifatida Valter Skott asarlari bilan yuksak badiiy taraqqiyotga erishgan. Ispaniyalik mashhur yozuvchi Migel De Servantesning “Don Kixot”, nemis yozuvchisi Gyotening “Verter”, amerika yozuvchisi Kuper romanlari jahon adabiyoti tarixida romanchilikning ilk mumtoz namunalaridir. Yangi tipdagi roman realistik tasvirning kuchayishi bilan xarakterlanadi.” [3,b.466] Gʻarb adabiyotining durdona asarlari boshqa xalqlar adabiyotiga ham sezilarli taʼsir oʻtkazgan. Arab adabiyotida roman janrining paydo boʻlib, rivoj topishida ham adabiy aloqalar katta ahamiyat kasb etdi.

Biz bir ovozdan arab tarixiy roman janrini Joʻrjiy Zaydon qoʻlida paydo boʻlgan deb eʼtirof etsak xato boʻlmaydi, chunki u Sharq va Gʻarbdagi islom tarixiy haqiqatlarini oʻz ichiga olgan bir qator tarixiy romanlarni bizga taqdim etgan.

“Joʻrjiy Zaydonning har bir romani ikkita asosiy elementni oʻz ichiga oladi: birinchisi tarixiy voqealar va shaxslarga asoslangan tarixiy element, ikkinchisi esa ikki sevishgan oʻrtasidagi ishqiy munosabatlarga asoslangan uydirma element.” [4, b.195] Ha darhaqiqat roman janrining yana bir oʻziga xos xususiyati ham aynan mana shunda, unda albatta muhabbat tasviri boʻlmogʻi lozim. Roman soʻzining lugʻaviy maʼnosi ham asida “ishqiy hikoya, muhabbat bayoni”ni anglatgan. “Adabiyotga xos maʼnosi: «roman» biror voqeaning erkin tarzidagi mufassal bayonini anglatadi. Oʻtgan asrlarda “roman” soʻzi Yevropada “ishqiy qissa” maʼnosini anglatgan. Ikki sevishganning arzi-holi “roman” deb belgilangan. Maʼlumigizkim, bu kabi ishqiy qissalar oʻzbek adabiyoti tarixida koʻp boʻlgan. Adabiyotning jamiyatga munosabati, jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri, aralashuvi faollashishi oqibatida roman, yaʼni ishqiy qissa zimmasidagi vazifa oʻzgardi — ishq bayoni ijtimoiy masalalar bilan boyitildi. Ishaqiy fojialar safiga ijtimoiy fojialar,

jamiyat, zamonga doir fojialar qo‘shildi.”[5] Mana shunday asarlar safiga ham Jo‘rjiy Zaydonning deyarli barcha romanlarini kiritishimiz mumkin. Chunki uning asarlarida muhabbat bayoni tarixiy, ijtimoiy, siyosiy mavzular bilan birga boyitilgan holda hikoya qilinadi.

Misrdagi 1919 yilgi inqilob natijasida yuzaga kelgan voqealar zamonaviy hikoya va roman janrlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. “Zaynab” romanidan so‘ng badiiy roman sohasiga qo‘shgan birinchi hissa urushlar oralig‘ida bu sohaning dastlabki kashshoflaridan uchtasi, ya‘ni Iso Ubayd, Mahmud Taymur, Tohir Lashinlar zimmasiga tushdi.

Romannavis yozuvchilar o‘zlarining romanlari orqali misrliklarning umumiy xarakterini ta’kidlashga harakat qilishdi va ular badiiy roman sohasida birinchi ustunni qo‘yishdi. Roman sohasiga hissa qo‘shgan yozuvchilar sirasiga Muhammad Husayn Haykal, Toha Husayn, Mahmud Al-Akkad, Ibrohim al-Maazniy va Tavfiq Al-Hakimlar kiradilar.

Najib Mahfuz arab romani tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi va uning rivojida muhim rol o‘ynaydi. Misrda romannavis yozuvchilarining ikkinchi avlodi, Najib Mahfuz, Odil Komil, Yahyo Haqqiy, Abdul Halim Abdulloh va Yusuf Al-Sibaiylar hisoblanadi. Badiiy roman rivoji uchun sezilarli hissa qo‘shgan uchinchi avlod vakillari Abdur-Rahmon ash-Sharqaviy, Solih Mursiy, Yusuf Idris va Abdus-Sattor Xaliflarning romanlari realizmni ijtimoiy mavzular orqali taqdim etishga harakat qilgan.

**Natijalar va muhokama.** Hozirgi kunda “qisqa roman” yoki "novella" butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan nasriy shakl hisoblanadi. Shuningdek, arab maydonida “novella” bo‘yicha bahs-munozaralar borligi, uning ta’rifidagi tebranishlar va ba’zi tanqidchilarning ta’riflaridagi chalkashliklar kuzatilmoqda.

Umuman olganda, roman hamisha shakl va mazmun jihatidan o‘zgarishlar va taraqqiyotning guvohi bo‘lib kelgan. Buning o‘tgan asr davomida novellaning tarqalishi, ayniqsa so‘nggi yillarda, garchi u tushuncha sifatida hali ham chalkash va aniqlanmagan bo‘lsa-da tez yoyilayotganini kuzatishimiz mumkin.

“Qisqa roman” yoki "Short novel" adabiy janr bo‘lib, uning o‘lchami qisqa hikoya va uzun roman o‘rtasidagi oraliq uzunlik bilan ajralib turadi. U ma’lum bir g‘oya yoki hodisaga qaratilganligi, xarakterlarning chuqurligi va ularning rivojlanishi bilan ajralib turadi, ammo bu uzoq vaqt davomida ishlab chiqishga imkon bermaydi. Bu yozuvchilarga mavzularni chuqur, ammo nisbatan ixcham tarzda o‘rganish imkoniyatini beradi.” [6]

“Britannica” ensiklopediyasi novellani "qisqa va yaxshi tuzilgan, ko‘pincha realistik va satirik ohangda, bu butun Yevropada qisqa hikoya va romanning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi" deb ta’riflaydi[7]. Amerikaning mashhur elektron manbaasi Merriam Webster uni "romandan ko‘ra qisqaroq va odatda unchalik murakkab bo‘lmagan xayoliy belgilar va voqealarga ega asar". Novella 20 000 dan 49 999 so‘zgacha bo‘lgan badiiy asar hisoblanadi. Kitob 50 000 so‘z belgisiga yetgandan so‘ng, u odatda roman deb hisoblanadi. (Ammo, standart roman taxminan 80 000 so‘zni tashkil qiladi, shuning uchun 50 000 dan 79 999 so‘zgacha bo‘lgan kitoblarni qisqa romanlar deb atash mumkin”[8], deb ta’riflaydi.

Roman va qisqa roman o'rtasidagi farq nafaqat uzunlik va qisqalikda, chunki ikkisi ham eng boy adabiy shakllardan hisoblanadi. Qisqa roman hikoyadan ko'ra mavzu va xarakterni yanada kengroq rivojlantirishga imkon beradi, murakkablikni taqdim etmaydi, uzun romanning tizimli talablari bo'lmaydi. Shunday qilib, u o'z mavzusini qizg'in va batafsil o'rganishni ta'minlaydi, ma'lum darajada hikoyaning diqqat markazini va romanning keng qamrovini ta'minlaydi.

Qisqa hikoyalar odatda bir necha ming so'zdan iborat bo'lib, bir o'tirishda o'qilishi mumkin, qisqa romanlar esa ko'proq vaqt, e'tibor talab qiladi. Shaklda novella qisqa hikoyadan ko'ra ko'proq konfliktlar va syujetning jadal rivojini o'z ichiga oladi, ammo romanga qaraganda kamroq mojarolar tasvirlanadi.

Qisqa romanlar butun Yevropada romanning rivojiga ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxirida Genri Jeyms ingliz tilidagi birinchi tanqidchilardan biri bo'lib, novella atamasini qisqa hikoyadan uzunroq va murakkabroq, lekin romandan qisqaroq nasriy janr uchun ishlatgan. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda zamonaviy qisqa roman kamdan-kam hollarda alohida adabiy janr sifatida ta'riflanadi.

Uzunlik va qisqalik masalasidan tashqari, ijodiy xayolot olamida ilhomlantiruvchi asarlar ham har xil o'lcham va uslubda bo'lishi mumkin. Madaniy va adabiy sohaga qiziquvchilarning fikricha, biz tezlik asrida yashayapmiz va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi va yoshlarning ommaviy axborot vositalari bilan mashg'ul bo'lishi texnologik inqilob fonida romanlar qisqa romanga qarab harakat qilmoqda.

Arab olamida ham bu tendensiya avj olmoqda. Bunga yorqin misol sifatida suriyalik adiba Maxa Hassanning "Cheksizlik: Boshqaning tarjimai holi" va uning vatandoshi romannavis yozuvchi Manhal al-Sarrajning "Sarrah" romanlarini ko'rsatishimiz mumkin. Qisqa romanlar bitta bosh qahramonni o'z ichiga oladi va voqea bir nuqtai nazardan hikoya qilinadi va ular xilma xil, ko'p syujetlardan mahrum.

Zamonaviy arab adabiyotida qisqa romanga yorqin misollar sifatida quyidagi asarlarni sanashimiz mumkin, jumladan, Ali Badrning "Bulutli o'yinchi", Muhammad al-Bissatining ba'zi kitoblari, livanlik Rabih Jobirning "E'tiroflar" va Ilyos Huriyning bir qator asarlari, shuningdek, sudanlik yozuvchi Amir Toj as-Sirning "Ob-havo", suriyalik Nag'am Haydarning "Bir marta", misrlik yozuvchi Izzat Al-Qamxavining "Nilni tomosha qilayotgan xona" va livanlik yozuvchi Hoda Barakatning "Odamlar" romani.

Bir qator tanqidchilar arab adabiyoti darg'alaridan Nobel mukofoti sovrindori Najib Mahfuz ham, Toha Husayn, , Abbos Mahmud Al-Akkad, Jubran Halil Jubran, G'assan Kanafaniy va Yusuf Idrislar qisqa romanlarning yorqin namunalarini yaratganlar. Yusuf Idrisning "Harom" va "Nuqson", shuningdek, Najib Mahfuzning "Karnak", "Rahbar o'ldirilgan kun", "Ibn Fatumaning sayohati", "Yo'l" kabi asarlari qisqa romanlarga misol bo'la oladi.

Dastavval hikoyanavis sifatida ijod yo'lini boshlagan marokashlik adib Muhammad Said Ahjiyujiy qisqa roman uchun Ismoil Fahd Ismoil mukofotiga sazovor bo'lgan. U "Tanjer kechasi", "Tanjerdagi Kafka" va "Edmond Omran El Malih jumbog'i" kabi qisqa romanlar muallifidir.

Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ommaviy axborot vositalari an'anaviy yozma xabarlarni butunlay yo'q qildi. Internet kutubxonalar, elektron resurslar qog'oz kataloglarga bo'lgan ehtiyojni yo'qqa chiqardi. Bora bora yaqin kelajakda gipermatn ustunlik qilishi mumkin. Bu o'zgarishlar, albatta, boshqa sohalar qatori adabiyotga, adabiy manbalarga, badiiy adabiyotga va uni o'quvchilariga o'zining ta'sirini o'tkazdi.

Ilm-fan sohasidagi yutuqlar va taraqqiyotning jadal sur'atlari, intellektual, siyosiy va iqtisodiy tendensiyalarning tez o'zgarishi, ta'sirchan global voqealarning ketma-ketligi bo'lgan keskin davrning ana shu jarangdor, tinimsiz, to'qnashuv ritmiga mos bo'lgan nasrning zamonaviy shakli qisqa romanga aylanishiga olib keldi. Shubhasiz, hozirgi kundagi kitobxonning doimiy o'zgarish va yangilanishga intilishi uni uzun roman yoki o'ziga xos mumtoz qonun-qoidalarga ega doston, uni o'qish va soatlab vaqt sarflashni qabul qilmaydi, bu esa yozuvchilar uchun mislsiz imkoniyatlar yaratadi. Keyingi yillarda qisqa romanlar keng tarqalib bordi va ularning talabgorlari-kitobxonlar bazasi kengaydi, kelajakda yana ham kengayishi kutilmoqda.

“Har qanday adabiyot –o'z davrining mahsuli.Asar yozilayotgan davrni u yoki bu jihatdan aks ettiradi. Adabiy mavzular ham baribir o'z zamonasi tafakkuridan, yashash tarzidan kelib chiqadi. Faqat daholar o'z zamonida turib davrning kechinmalarini ehtiyojga aylantira oladilar.” [2,b.62] Ha darhaqiqat adabiyotning eng asosiy vazifasi ham aynan shunda. O'z zamonasining dardlarini, iztiroblarini, ilg'ash qiyin bo'lgan kichik muammolarini ham qalamga olib omma e'tiboriga havola etish. Buni faqat mahoratli o'tkir qalam sohiblari, ya'ni yozuvchilargina qila oladilar. Bunda yozuvchi ko'targan g'oyasini qay yo'sinda yoritishni o'zi tanlaydi, xoh roman bo'lsin, xoh hikoya, xoh drama bo'ladimi bularning bari yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Yozuvchi Harib Az-Zohiriy ta'kidlaganidek, “Har qanday romanning uzunligi uning mavzusi va g'oyasiga bog'liq va ma'lum miqdordagi so'zlar bilan belgilanmaydi. San'at bunday qat'iy ta'rif va cheklovlarga bo'ysunmaydi, ba'zi romanlar g'oyasi buni talab qilgani uchun uzun, shu sabab qisqartirishga mos kelmaydi.”[9]

Xuddi shunday, boshqa asarlar qatori qisqa romanlarning ham go'zalligi va yorqinligi ularning mazmuni, mohiyati, o'qishga sarflangan vaqtining qisqarishidadir, chunki ushbu mavzular ko'lami ko'rib chiqish uchun qulaydir.

Az-Zohiriyning fikricha, “qisqa roman – bu uzun hikoyadir, u hikoya singari bir xil hikoya qilish usullari va metodlariga tayanadi. Ba'zi romannavislar qisqa va to'mtoq shakl orqali asarning afzalliklarini ochib beruvchi romanlarni taqdim etdilar. Bu asar poetik til esa tasvir jihatidan timsol va tashbehlariga to'la bo'lib, tartib va dramatik tuzilishda chalkashliklarni yuzaga keltiruvchi zerikarli so'zlashuvdan uzoqlashadi, natijada go'zallik va zavqni tarannum etadi va shu bilan birga, bizni maqsad va g'oya bilan yuzma-yuz qo'yadi. Bu esa o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi va xususan, ijtimoiy tarmoq saytlarida allaqachon hukmronlik qila boshlagan ushbu turdagi nasriy asarlarni kitobxon omma afzal ko'rmoqda, deya qo'shimcha qiladi Az-

Zohiriy. “Ammo bu nasriy asar yaratishning yagona yoki afzal usuli ekanligini anglatmaydi; Chunki har bir pozitsiyaning o‘z vositalari va usullari bor”.[9]

Ha, darhaqiqat har bir asar individual insonning individual ijod mahsulidir. Shu sabab har bir asarni yozuvchi eng avvambor o‘z g‘oyasini yetkazib beruvchi bir vosita deb biladi. Bu g‘oyani qaysi yo‘sinda yetkazishi yozuvchining badiiy mahorati-yu yozish uslubiga bog‘liq. Xoh qisqa hikoya bo‘ladimi yoki katta hajmli roman, yoki mo‘jazgina roman bo‘ladimi eng asosiysi kitobxonga badiiy-estetik zavq ulashmog‘i va yozuvchi ko‘targan g‘oyani go‘zal tarzda tarannum etmog‘i darkor. Yozuvchi o‘zi aytmoqchi bo‘lgan so‘zi, ko‘targan g‘oyasini qaysi adabiy janr tezroq va mukammalroq yetkazishini oldindan ko‘ra biladi va shu sabab yozuvchi adabiy janrni o‘zi tanlaydi.

**Xulosalar.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, qisqa roman g‘arb adabiyotida ham sharq ya’ni arab adabiyotida ham o‘ziga xos o‘ringa ega. U o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlariga ega. Qisqa roman ildizlari dastavval yaratilgan ilk uyg‘onish davri asarlariga borib taqalsa, keyinchalik u o‘z rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tib, hozirgi “qisqa roman” shakliga yetib keldi. Arab romanlarining qaror topishida g‘arb adabiyotining nodir namunalari bilan aslda va tarjimada tanishish, va boshqa tarafdandan milliy meros an’analarini qo‘llash asosiy mezon sifatida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Qisqa roman hikoya va roman texnikasini birlashtirgan gibriddir. U badiiy asarlarni keraksiz detallar, shuningdek, ortiqcha tafsilotlarsiz, qisqartmalarsiz tasvirlashga asoslanadi. Qisqacha, lekin ishonarli tavsif, bir bosh qahramon va uning atrofidagi syujet qurilishi, vaqti va joyi belgilangan mo‘jaz asar. Hozirgi kunda bu san’at g‘arb adabiyotida ham, arab adabiy dunyosida ham yoyilmoqda va o‘zining ixchamligi tufayli keng ommalashmoqda, ijtimoiy tarmoq saytlarida, o‘quvchilar orasida o‘z ta’sirini oshirib bormoqda.

#### ADABIYOTLAR:

1. B.Karim. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.T-2018;
2. N. Eshonqul. Mendan “Men”gacha. Toshkent. Akademnashr.2014;
3. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘quv metodologik qo‘llanma” si. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2002,
4. تطور الرواية العربية الحديثة، عبد المحسن، طه بدر، الطبعة الثالثة، دارالمعارف، 1976م
5. Tohir Malik. Ibrat maktabi O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati (<https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/uzbek>). 10.04.2013
6. [https://engage.moc.gov.sa/baba\\_taher\\_novella](https://engage.moc.gov.sa/baba_taher_novella)
7. <https://www.britannica.com/art/novella>
8. <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/novella>
9. علاء الدين محمود. الرواية القصيرة... موضة جديدة في الأدب. تجمع بين اللغة المكتفة والأحداث المتكشفة 21 نوفمبر 2020